

**“TOSHGA JON BAXSHIDA ETGAN SAN’AT...”**  
**“Usta hunarmadlar” mavzusidagi dastgohli haykaltaroshlik asarida**  
**yashiringan falsafiy ma’nolarning badiiy tahlili.**

**Tursunova Xushnida Nizomiddin qizi**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti*

*“Dastgoh va kitob grafikasi” yo’nalishi*

*2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Har bir san’at asarida kompozitsion go’zallik asosiy o’rinni tashkil etsada, unda ma’no va mazmun bo’lmas ekan bu asar uzoq yillar inson ruhiyatiga yengillik va ma’rifat ulasha olmaydi.

**Kalit so’zlar:** San’at, haykaltarosh kompozitsiya, dastgohli haykal, ustoz va shogirt, uyg’onish davri, koloss, byust, tors.

Ushbu izlanishim tarix va bugunning ajoyib birligi hisoblanadi. Madaniyat va san’atning zabardast turlaridan bo‘lmish haykaltaroshlik san’atining tarixida turli mavzularda ilmiy izlanishlar olib borilgan bo’lib, san’at tarixini kundan kunga turli yangi ma’lumotlar bilan boyitib bormoqda. Bizga malumki haykaltaroshlikda ham bir qancha janrlar mavjud bo’lib, quyidagi asar dastgohli haykaltaroshlik na’munasi ekanligi bilan ajralib turadi. Dastgohli haykal o’zi nima va u qanday turlarga bo’linadi degan savolga javob bersak, dastgoh haykaltaroshlikga mustaqil mazmunga ega bo’lgan, san’atning boshqarlariga tobe bo‘limgan asarlar kiradi; ular ko’rgazmalar, muzey xonalariga va uylarning interyeriga qo’yish uchun mo’ljallanadi. Bu tur asarlarda voqelik o’zining butun borlig‘i bilan aks ettiriladi hamda inson ruhiyatidagi nozik uzgarishlar, uning ichki kechin-malari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati katta. Dastgoh haykaltaroshlik asarlari ham quyidagilarga bo’linadi.

1. byust (belgacha bo’lgan portret),
2. tors, haykal (adam gavdasining natural kat-talikda ishlangan ko’rinishi),
3. haykalcha (natural kattaligidan kichik bo’lgan haykallar),
4. koloss (haddan ortiq kattalikda ishlangan haykallar, mas, Rodos kolossi),

janrli haykal (muayyan muhitda tasvirlangan adam yoki odamlar guruhi) va boshqa ko’rinishda bo’ladi<sup>1</sup>. Dastgohli haykalni tanlashimdan asosiy maqsad, dastgohli haykaltaroshlik barcha haykaltaroshlikning asosi hisoblanadi. U ko’plab partret byust turlarini bir yoki ko’p figurali kompazitsiyalarni o’z ichiga oladi. <sup>2</sup> “Men

<sup>1</sup>Apuxtin O.K., Tasviriy san’at asoslari, T., 1967;

<sup>2</sup> Ulig’bek Kuryazov. Ashyoda ishlash va marmarga ishlov berish uslublari/”Lesson press”MCHJ nashryoti, Toshkent 2019-.,-124b.3-bet.

bu ishimda asosan ustoz va shogirt ananasiga asosiy urg'uni bergenman. Milliy va badiiy madaniyatining ajoyib ko'rinishlaridan biri bo'lgan kulolchilik san'ati va uning uzoq yillik tarixi va xozirgi kundagi ahamiyati haqida asosiy tasavvurimni olib



berishga harakat qildim"-deydi asar muallifi Kamoliddin Bexzod nomidagimilli rassomlik va dizayn institute talabasi Aminov Erkaboy. "Bu mavzuni tanlashimdan asosiy maqsad o'z ilmini shogirdlariga meros qilib qoldiradigan aziz ustozlarimizning buyuk mehnatlarini ijodiy ishimda o'z yechimini topish. Bu bitiruv malakaviy ishi ham tarix bilan bog'liq mavzu bo'lib biz bunda millatimizning kelajagi yoshlarga yo'l ko'rsatib keladigan aziz insonlarning nomini yananada tanitish yosh avlodga ular haqida bilishi uchun yordam berish, yoshlarning ongida ularni shunchaki "ustoz" emas balki xalq qahramonlari, yetakchi bo'lganligini bildirishdir"-deb o'z so'zlariga yakun yasadi. Shu o'rinda bu bitiruv malakaviy ishi ham bu yo'ldagi bir amaliy misoldir deya olamiz. Jumladan yaratilgan asar orqali ularga hurmat, tarixni ulug'lash va bugungi yosh avlodga "Yetakchi"lar haqida yaqindan tasviriy axborot yetkazish masalasi ko'zda tutilgan. Xulosa qilib aytganda, haykaltarosh ushbu asarni yaratishdagi o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifasini a'lo darajada olib bera olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

### **"Usta hunarmadlar" mavzusidagi dastgohli haykaltaroshlik asari**

Biz tarixdan bilamizki, Mikelanjelo ijodi Uyg'onish davri san'atining yuksak bir cho'qqisi bo'ldi. Bu asrlardan bizgacha kelganligining sababi ham yuqorida aytib o'tilgan ma'naviy ozuqaning borligidir. U yaratgan asarlaning go'zalligi asosiy g'oyani tashkil etadi, asar chaksiy g'oyalar zanjiridan iborat. Asarlarni har kim o'zicha talqin etadi.

Shunday ekan vatani ham, inson qalbi ham go'zal bo'lishi kerak, teran qarab mustaqil fikrashi va Vatanimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi kerak. Mening asarimda shu g'oya orqali borliq va yer shari, ustoz va shogirt o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasi orqali orqali olam go'zalligi va buyuk insoniyat falsafasi tasvirlangan.

Olam doimiy harakatda ekan g'oyalar ham harakatda bo'ladi. Muqaddas "Qur'oni karim"da "Alloh go'zallikni yaxshi ko'radi, u go'zaldur" deb bejiz aytilmagan. Olam go'zalligiga erishishi uchun insonning surati ham sirati ham , qisqa

qilib aytganda “Ezgu g’oya, ezgu amal, ezgu niyat” qalbimizda doimo shior bo’lib qolishi lozim.<sup>3</sup>

Usta hunarmandlar mavzusidagi dastgohli haykaltasroshlik asarining badiiy tahlili quyidagicha; Yer shari shakliga o’xshash gumbazning ustida o’tirgan ustoz va shogirt kulollar tasvirlangan, eng avvalo uning kiyimlari milliyligimizdan va 1o’zligimizni tarannum etadi. Beliga belboq bog’lagan ustoz o’z ishiga chuqr masuliyat bilan yondashganligini belgisi. Bir-biriga yuzlangan holda ilm va ma’rifat haqida baxs yuritayotgandek. Albatta, gumbaz bu- bir yer misolida tasvirlangan dunyoni ichida ikki fikr yani ikki odam, ustozning qo’lidagi ko’za uch qismidan diogonaliga kesilgan bo’lib, u o’z ilmini shogirtlariga bo’lishganing belgisi hisoblanadi. Inson yaratilishida yer yuzidagi hayvonlardan farqi uning o’z aql idroki va shaxsiy fikrga ega ekanligi bilan farqlandi shuning uchun gumbazni o’rtasidan bo’ldim va ustoz tarafidagi yaxlit bir kompazitsiyada kotta bir fikr mujassam. Shogirti tomonida esa kichikroq va hali imkonlar ko’p ekanligining belgisidir yer shakli singari gumbazni kesganligimning sababi ham shunda. Va ular bir-birini to’ldirib turadi. Ustoz shogirdisiz ustoz bo’laolmagani kabi, shogirdi esa ustozisiz uzoq marralarni egallay olmaydi.

Olam go’zalligini fazoviy tasvirda ko’rinishi cheksiz boylikdir. Xulosa qilib aytganda, fonyi dunyoda yashayotgan har qaysi inson o’zligini anglashi, qadimiy o’zbekona milliy an’anamizni, tariximizni, boy madaniyatimizni, ulug’ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o’zlashtirishi lozim.<sup>4</sup>

Ustoz boshining harakati, shogirdi tomon yuzlanganligi, qo’lidagi ko’zani shogirdiga uzatishga chog’langanligini ko’rib turibmiz, shogirdi esa ustozga tomon yuzlangan bu esa kompazitsiyadagi muloqot jarayonini uzliksiz bo’lishini ta’minlab turibdi. Hamda asar kompazitsiyasining ritmik yechimini ochib bermoqda. Tasviriy san’atda ritm badiiy san’at asarida ifoda vositalaridan bo’lib, asar tuzilishining o’ziga xos tomonini belgilaydi, uning g’oyaviy- badiiy estetik mazmunini chuqurroq

Gumbaz ustidagi usta va shogird shunday hotirjam va bemalol o’tiribdiki bu esa ularning o’z qilayotgan ishlariga nisbatan bilimini yetarli ekanligi va o’z ishlarini sevishidan dalolat beradi. Asardagi dinamik harakatning sxematik ko’rinishi, shundan iboratki, Shogird bolaning boshidan ko’zaning uchki qismi va ustozning bosh qismiga bo’lgan harakat kompazitsiyaning ritmik harakati hisoblanadi. Markazdagi ko’za charxning ustida turibdi, charx esa dunyo misolida keladi ko’za ilm; ilmni esa dunyoga kelgandan, dunyodan ketgunga qadar o’rganishimiz mumkin. Bu ilmni bizga ustozlar beradi. Va ilm o’rganishimiz uchun dunyo charxfalagida ko’za misol

<sup>3</sup> S. S. Bo’latov, M. S. Soipova. Badiiy taxlil tamoyillari. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2016

<sup>4</sup> S. S. Bo’latov, M. S. Soipova. Badiiy taxlil tamoyillari. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2016. 40-bet.

aylanishimiz kerak. Bu naqadar ajoyib falsafa. Markazda esa xayot charxpalagi aylanadi.

Charxpalak chapdan o'ngga qarab harakat qilmoqda. Bu esa soat ko'rsatgichini eslatadi. Buni zamirida hayot o'tkinchi bir davr ekanligini his etishimizmumkin. Yer sharidagi gumbazlarga qarasak, ularni bir- biridan ozgina siljiganini ko'ramiz buning zamirida esa qarama-qarshi harakat va fikrlar jamlanmasini ko'rishimiz mümkin. Ibn-Sino aytganidek, har qanday harakatning manbai ziddiyatdir. Ana shu ziddiyatlar sabab inson yuqori cho'qqilarni zabd etadi. Ustoz va shogird o'rtasidagi ziddiyat ham har doim shogirdining yanada o'sishi uchun imkon yaratganligidadir. Xulosa qilib aytganda xar doim borlig'imiz ziddiyatlardan iboratdir. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda "Tog'lar xam suv kabi suzib turadilar". Shunday ekan xech qachon o'sishdan to'xtamaslik kerak

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. S. Bo'latov, M. S. Soipova. Badiiy tahlil tamoyillari. Toshkent - "Fan va texnologiya"-2016.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.-T.:2004. B. T. 7.
3. Apuxtin O.K., Tasviriy san'at asoslari, T., 1967.
4. Ulug'bek Kuryazov. Ashyoda ishlash va marmarga ishlov berish uslublari/"Lesson ress" MCHJ nashryoti, Toshkent 2019.